

**IJTIMOY INSTITUTLARNING O'QUVCHI -YOSHLAR
TARBIYASIDA AHAMIYATI.**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM o'qituvchisi

Uralova Ma'rifat Shonazarovna

uralovamarifat26@gmail.com

+998939311162

ANNOTATSIYA: Ijtimoiy institutlar jamiyatda muayyan qoidalar, qonunlar va me'yorlar asosida insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartbga soluvchi tizim sifatida tasvirlanadi. O'zbekistondagi ijtimoiy institutlar faoliyatiga zamonaviy globallashuv jarayonlari va davlat siyosati ta'siri ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ta'lif, institutlar, me'yor, jamiyat, munosabat, rivojlanish, hissa, zamonaviy, globallashuv, institutsionalizatsiya, munosabat.

Dunyoda ijtimoiy institutlar va ta'lif muassasalari hamkorligi tizimini mustahkamlash va rivojlantirish uchun muhim sa'y-harakatlar amalgamash oshirilmoqda, ta'lif, fan, madaniyat va axborot sohasidagi mintaqaviy, submintaqaviy hamkorlikni yuksaltirish, ijtimoiy institutlari va ta'lif muassasalarini hakmorlikda tarbiyalash masalalarining yuzaga kelishi tufayli jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishga doir ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu esa o'z navbatida, ilg'or xorijiy tajribalarga tayanib fan va texnologiya yutuqlari bilan hamohang tarzda ilmiy tahlil qilish, o'quvchi-yoshlarni tarbiyalashda ijtimoiy institutlarning rolini oshirish va sohani rivojlantirish, o'quvchilarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish bilan bog'liq ko'nikma hamda malakalarni ta'lif va tarbiya integratsiyasi asosida shakllantirish zaruratinini keltirib chiqarmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda demokratik huquqiy jamiyat qurish bevosita o'quvchi-yoshlarimizni tarbiyalash bilan bog'liqdir. Shunday ekan, o'quvchi-yoshlar qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash,

ularning ongли yashashga, fikriga ega bo'lishga turli mafkuraviy tajovuzlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan, irodali, fidoiy va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan. Zero, mamlakatimizda o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ta'lim - tarbiyaning bosh maqsadi etib belgilangan. O'quvchi yoshlarni tarbiyalashda ijtimoiy institutlar va ta'lim muassasalari hamkorligini takomillashtirish jarayonida ularni estetik ruhida tarbiyalash muammosi ilmiy-nazariy jihatdan yaxlit va bir butun holatda tadqiq qilinsa;

O'quvchi yoshlarni tarbiyalashda ijtimoiy institutlar va ta'lim muassasalari hamkorligini takomillashtirish ishlarni tashkil etishning mazmun-mohiyati va funksiyalari ohib berilsa;

O'quvchi yoshlarni tarbiyalashda ijtimoiy institutlar va ta'lim muassasalari hamkorligini takomillashtirish yo'llaridan tashqari ishlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida qilish mazmuni ishlab chiqildi va uni amalga oshirishning samarali metodlari, vositalari tavsiflansa ;

Ijtimoiy institutlar va ta'lim muassasalari hamkorligini takomillashtirish yo'llarini tashkil qilish orqali o'quvchilarni maktab ,oila, mahalla hamkorligidagi tarbiyalanganlik darajasini aniqlovchi mezonlar belgilandi va ularning samaradorligini ko'rsatuvchi darajalar ishlab chiqilsa;

Ijtimoiy institutlar va ta'lim muassasalari hamkorligini takomillashtirish yo'llarini tashkil qilish orqali o'quvchilarni pedagogik texnologiyalar asosida estetik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilib, ularga asoslanadi.

Bugungi kundagi taraqqiyotning jadal suratlar bilan rivojlanishi, globallashuvi intellektual jihatdan yuksak rivojlangan davlatlarning dunyoda gegemonlik va barcha sohalarda yuksalishlari va ularning tajribasi namuna bo'layotgan bir davrda O'zbekiston o'zining boshqaruvdagi o'ziga xos tizimi shakllantirganligi ham tahsinga sazovardir. Uchinchi Renasansni qurayotgan Yangi O'zbekiston davlati taqdirini o'z qo'liga olib, yangi hayot, jamiyat qurishga, kelajagini jahon hamjamiyatining uzviy bir qismi sifatida tashkil etishga kirishdi. Zahmatkash xalqimiz o'zining fidoiy mehnati bilan dunyoda hech kimdan kam

bo'lmay, taraqqiy topgan mamlakatlar qatoridan o'rin olib, tinch, farovon va osuda hayot kechirishga haqlidir. Lekin bu yo'l juda murakkab yo'l bo'lib, u jamiyat a'zolaridan fidoyilik, vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ulari ustuvor bo'lishini talab qiladi. Buning uchun jamiyat hayotining ertangi kunini yaratadigan yoshlarda xuddi mana shu tuyg'ularni shakllantirish zarur.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh qilish va ustuvor tarmoqlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan muhim loyihalar barcha hududlarning talablari va mahalliy tashabbuskorlarning takliflarini inobatga olib, 20-maqsadida aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat organlarining fuqarolik jamiyati institatlari, ommaviy axborot vositalari va ta'lim tashkilotlari bilan o'zaro samarali hamkorligini yo'lga qo'yish" masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, Ta'lim olishimizda va hayotda o'z o'rnimizga ega bo'lishimizda Ijtimoiy institatlarning o'rni beqiyos bu maqolamiz orqali yoritib berishga harakat qildim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Xalq so'zi 2013-yil 19-yanvar
- 2.Ta'lim muommolari ilmiy-uslubiy jurnal 4-sod Toshkent, 2004-yil
3. A.Sh.Bekmurodov. Z.Y. Karimov- Bosh maqsadimiz- keng ko'lamlili islohatlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish Toshkent-2013-yil.